



FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

Murodova Salomat

Ajiniyoz nomidagi NDPI Ellikqal'a ijtimoiy gumanitar fanlar kafedrasi asistenti

ABDULLA AVLONIY ASARLARIDA SO'ZLASHUV TILIGA XOS LUG'AVIY BIRLIKLARNING USLUBIY QO'LLANISHI

Abstract

This paper makes analyses of the Abdulla Avloniy scientific works. On this case, identical lexical and dictionary points with specific methods were used to get more points for the further research work. In conclusion, it has views of the different analyses while pointed both outcomes and shortcoming of the Abdulla Avloniy's scientific works.

Keywords

Abdulla Avloniy, science, research, methods, factors

Kirish

O'zbek adabiy tilinin tadrijiy taraqqiyot bosqichlari ma'lumki, XX asr boshlariga kelganda, an'anaviy uslub jonli so'zlashuv tilidan ancha uzoqlashib qolganlikdan jamiyat hayotidagi o'zgarishlarga to'liq javob bera olmay qoldi. B uholat qator adiblarni jonli so'zlashuv tiliga murojaat etishni taqozo qildi. Ular Abdulla Qodiriy ta'kidlagan «Badiiydik har bir narsani ko'rganda, o'sha narsani va undan olgan taassurotni oddiy xalq tilida to'g'ri tasvirlab berishdadir... so'z -qolip fikr uning ichiga quyilgan g'isht bo'lsin, ko'pchilik xumdonidan pishib chiqqach, yangi hayot ayvoniga asos bo'lib yotsin...» degan badiiy tasvir tamoyiliga amal qila boshladilar. Masalan, Hamza milliy adabiy tilning rivoji va ravnaqida uning



material manbasi bo‘lmish xalqning jonli so‘zlashuv tiliga murojaat qilib, *qiron kelsun, tilm kesilsun, bo‘nim uzilsun, ilm dorusi, qora el* kabi lug‘aviy birliklarni ifoda-tasvir vositalari sifatida qo‘llab, til va uslubda shunday muvaffaqiyatga erishdi. Xuddi shunday, Abdulla Avloniy ham xalq tilining beqiyos xazinasiga murojaat qilib, 20-yillar o‘zbek adabiy tili taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shdi: *Man qurg‘ur, finagi qursun, qilig‘ing qursun, qadaming qirqilsun, qurub ketsun, o‘lum bersun* (II j., 131, 147, 148, 151) va h.k.

Keltirilgan birikmalar tarkibidagi «**qurg‘ur**», «**qirqilsun**», «**o‘lum bersun**» fe’llari jonli so‘zlashuv tilida hatto hozirgi kunda ham faol iste’moldadir. Ulardan «**qurg‘ur**» leksemasi yengil koyish, achinish, tahsin, afsuslanish va sh.k. ma’nolarini ifodalaydi (O‘ZIL. II, 621). «**Qirqilsun**» unga nisbatan kuchliroq koyish-nafratlanish, mutloq xush kurmaslik, koyish-nafratlanish, mutloq xush kurmaslik, kimsaning o‘lib ketishini tilash kabi salbiy ruhiy holatlarni ifodalaydi. U «**qirqmoq**» fe’lining majhul nisbatdagi shakli «**qirqilmoq**» dan yasalgan, ikkinchi shaxsga nisbatan birinchi shaxs nutqida ishlatiladi. (Qarang. O‘ZIL, 1, 582, 583-b). Bu fe’l shakllari A. Avloniyning «**Advokatlik osonmi?**» dramasida Xudoyberning advokot Davronbekka arzida uning ayanchila ahvolini ifodalash, «**Pinak**» dramasi personajlaridan biri 62 yashar ko‘knori chol Tursunning o‘sha asar qahramoni qimorboz Tolibga nisbatan salbiy munosabatini ifodalovchi leksik tasviriy vosita sifatida ishlatilgan.

Tahlil qilinayotgan asarlar mantida *o‘poq-so‘poq, tikish-chotish, osh-suv, no‘noq, ma‘lum-pa‘lum, ulay-bulay, oz-moz, yov-mov, indamay-sindamay* kabi har ikkala komponenti yoki bir komponenti leksik ma’no anglatmaydigan juft so‘zlar; Shuningdek, qartayg‘an, tapmoq kabi leksemalar ham so‘zlashuv tiliga xos lug‘aviy birliklardir. Ular ham matn qurshovida muhim ifoda tasvir vositalari vazifasini bajargan.

Manbalarda «**alvasti**» so‘zi afsonaviy maxluq, jin, ajina, maxluq inson va jonivorlarning umumiyligi nomi bo‘lib, so‘zlashuv nutqida ko‘pincha hayvonlarga nisbatan qo‘llanishi ko‘rsatilgan. (O‘ZIL, I, 39)

Eslatilgan lug‘aviy birliklarning matn qurshovidagi ma’nosи, uslubiy qo‘llanishidan ayonkim, ular nihoyatda salbiy mubolag‘ali badiiy tasvir vazifasini bajargan.

A.Qodiriyning «**O‘tkan kunlar**» romonida ham «**Jonivor**», «**Maxluq**» so‘zleri romanning salbiy qahramonlari: Musulmonqul va Azizbeklarga nisbatan asarning ijobiy qahramonlaridan biri Yusufbek hoji nutqida ishlatilgan badiiy tavsirning nihoyatda ta’sirchan leksik tasviriy vositadir.

Maqolamizda tavsifu tahlil qilingan lug‘aviy birliklarning ma’nosи va uslubiy qo‘llanishidan xulosa shuki, ularning aksariyati daramalar matnida personajlar nutqida ishlatilgan. Bu lug‘aviy birliklar badiiy asarda qahramonning



nutqiy xarakteristikasini berish, mubolag‘ali badiiy tasvir, tomoshabin, kitobxonlarning tasvirlanayotgan voqeaga nisbatan ijobiyligi yoki salbiy hissto‘yg‘ularini kuchaytirish kabi uslubiy maqsadlarda qo‘llanilgan badiiy tasvirning muhim vositalarini yoritishga harakat qildik.

Xulosa

Yigirmanchi yillar til va uslub muammosini o‘rganishda bu davr adiblari, jumladan, Abdulla Avloniy asarlarining leksik-morfologik xususiyatlari milliy tilni jonli so‘zlauv tili materiallari asosida rivojlantirish uchun kurashlarning mohiyatini tushunishda muhim ahamiyat kasb etuvchi tayanch manbadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Abdurahmonov G‘. Behbudiy va uning hozirgi o‘zbek adabiy tilining shakllanishidagi xizmatlari// «O‘zbek tili va adabiyoti» jurnali, 1995, 3-son.
2. Abdurahmonov G‘ A.Qodiriy uslubi haqida// «O‘zbek tili va adabiyoti» jurnali, 1994, 4,56-qo‘shma sonlar.
3. Babajanov F. O‘zbek jadid dramalarining lioniy xususiyatlari. f.f.n. ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiyaning avtorefarati. Samarqand, 2002 yil.
4. G’oziyev E. O’quvchilarni umumlashtirish usullariga o’rgatish va ularning aqliy taraqqiyoti. T., 1983.
5. Nazarova S. O’zbek tili o’qitish metodikasi.T., 1992.